

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 yil «28» 11

536-12-170-
OB/2022-son

Bog'ot shaharchasi

Keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari O.Avezov bir tomonidan, keyingi o'rinnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan XIVA XALOL SAVDO MCHJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari D.Sadullayev ikkinchi tomondan Bog'ot tuman YAngi qadam maxallasi Xiva 2-tor, Nurqadam, Ko'rakam, Murabiylar, Xiva 5-tor, Zuyo ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi; -ijro hujjatlari- naturada bajarilgan ishlari yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lган shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obyekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlari tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyati konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagisi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;
- qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomalar buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi, obyektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilab quyiladi;
- vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lган harqanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlari – sifati va aniqligini keyingi ishlari bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lмаган keyinchalik bajariladigan ishlari va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlari;
- shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning harbir bosqichi va yoki turlari qiymatinianiq belgilagan holda shartnoma bo'yicha obyektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq dan Bog'ot tuman YAngi qadam maxallasi Xiva 2-tor, Nurqadam, Ko'rakam, Murabiylar, Xiva 5-tor, Zuyo ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari ishlari bo'yicha ko'zda tutilgan loyixa buyicha ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tanlov) natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (2022yil «24» noyabrdagi № 191058 -son bayonnomasi) bilan tasdiqlangan ishlari qiymati barcha soliqlar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda 276 500 000_(Ikki yuz etmish olti million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.
4. Ishlar qiymati o'zil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:
 - qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
 - ishlari qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
 - obyektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga q'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limali nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
 - barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jaib qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartlariga muvofiq topshirish;
 - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
 - qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
 - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar to'zilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;
 - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish buyicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroklari o'rnatish;
 - qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
 - mazkur shartnoma buyicha obyektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni quriklanishini ta'minlash;
 - qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnomasi to'zadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarini to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lган va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablaglarini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan obyekt xarajatlari uchun unumli ishlashish majburiyatini oladi.
9. Pudratchi obyektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlari bajarilganini isbotlovchi hujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnomasi buyicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda obyektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:
- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obyekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnomasi buyicha Pudratchiga berish;
 - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
 - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
 - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
 - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ruyxatini taqdim etish;
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

13. Shartnomasi tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.
14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi
15. obyektni Shartnomasi tomonlar uni imzolagandan va
G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan keyin 30 kunda foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnomasi bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnomasi bo'yicha ishlarni umumiyligi joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu **82 950 000 (Sakson ikki million to'qqiz ellik ming) so'mni** tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun budjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)
19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin haqiqiy bajarilgan ishlarni qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan holda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu obyekt qurilishi xarajatlari, shuningdek ta'minotchilarga, obyekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xak to'lash, obyekt qurilishida ishtiroy etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu obyekt qurilishining boshqa xarajatlari qat'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlarni miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomasi xisob-varaq-faqturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarning miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.
22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarni miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan to'ziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo cheqiladigan «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomasi-xisob-varaq-faqtura» asos bo'ladi.
23. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnomasi bo'yicha obyektg'a mulk huquqini o'zida saklaydi. obyekt Buyurtmachiga topshirigunga qadar obyektning tasodifiy yo'k qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorini tayinlaydi, u buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnomasi shartlariga va ishlarning bajarilishining muvofiqligini tekshiradi.
25. Texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

26. Pudratchi texnik auditorni ishlashi uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarini xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limga muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejsasi va ish jadvaliga binoan obyektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjalardan mayda chetga chiiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini kupaytirmsandan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda to'zata olmasa, Pudratchi ularni to'zatishning kechiqishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni Qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan boglik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi tugrisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan konikmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish choratadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) holATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'l maydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yo'zaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'l maydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni qonservatsiya qilish uchun qanday choralar qurilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning harbiri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa hujjalari xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qonstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa hujjalardan ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va obyektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- obyektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

XII. SHARTNOMANI BEKORQILISH.

35. Buyurtmachi:- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

-ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

-Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalardan nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

Qonun hujjalari muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

36. Pudratchi:
-ishlarning bajarilishi Pudratchiga boglik bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

-Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
Qonun hujjalari muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiyatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'limgan qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l quyilmaydi, qonun hujjalarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII . TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjalarda hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

42. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashfirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

43. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

44.. Pudratchi obyektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

45. Agar bajarilgan ishlarni sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yordalariga, ish hujjalarda muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida obyektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan ishlarni sifati zarur darajada bo'lmasan ishlarni qiyomatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

46. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

47. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarini tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, uholda ular qonun hujjalarda belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yuqotadi.

50. Pudratchi qurilish obyekti yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish hujjalarni Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaqidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan harqanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlarni yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirs, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlarni uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun hujjalarda Q.Q.S. to'g'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.

55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi konun hujjalari ko'llaniladi.

56. Mazkur shartnoma tamonlar imzolaniib Budjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022-yilgacha amal qiladi.

57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 3 nusxada tuzildi.

XVI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

58. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

59. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.



60. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlardan qonuriga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirlilmaganligini)

kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasdigi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

61. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiya qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

62. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiya qarshi qo'shimcha shartlarning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'riliшини va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqlidir.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

XIVA XALOL SAVDO MCHJ	«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»
Manzili: Xiva tuman Gandimiyon mahallasi	Manzili: Bog'ot shaharchasi Tinchlik ko'cha 2 uy
Tel/faks : 99 347 13 83	Tel/faks 62 31 52 783
x/v :20208000504810124001	ShXR 10002286033204704520 4110001
Banknomi : ATB Agro banki Urganch filiali	Budgetdan mablag oluvchi STIRi 206943827
MFO : 00548	MFO 00014
STIR :301276716	OKONX: 92310
HHTUT	G'aznachilik bul nomi: Moliya Vazirligi Yagona Gazna hisob varagi
	G'aznax/v 23402000300100001010
	Bankning nomi Markaziy Bank Toshkent sh bosh boshqarmasiB
Raxbar  (imzo)	STIR 201122919  Raxbar O.Avezov  (imzo)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

SW5347631846

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2.Loyihaning nomi:PUDRAT SHARTNOMASI

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Bog‘ot tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 28.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



U.A.XUDAYNAZAROV

28.11.2022

Bog'ot tuman YAngi qadam maxallasi Xiva2-tor,Nurqadam,Ko'r kam,Murabiylar,Xiva 5-tor,Zuyo ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha tanlovda yutib olgan narxni 2022 yil oylar davomida molyalashtirish

JADVALI

T/r	Nomi	Jami moliyalash- tirilgan mablag' (ishlarni bajarish)	2022 yil oylar qurilish qiymati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			Y a n v a r	f e v r a l	m a r t	a p r e l	t z e Y	i y u n	I y u l	a v g u s t	s e n t y a b r	O k t y a b r	Noyabr	Dekabr (5-Foyiz)
1	Avans (30 % mikdorida)	82 950 000											82 950 000	
2	Qurilish montaj ishlari	193 550 000											193 550 000	
	JAMI	276 500 000											276 500 000	



Bog'ot tuman Obodonlashurish

Boshqarmasi raxbari

O.Avezov



Pudratchi

XIVA XALOL SAVDO MCHJ

"XIVA"
raxbari
XALOL SAVDO
M.Ch.J.

D.Sadullayev

Bog'ot tuman YAngi qadam maxallasi Xiva2-tor,Nurqadam,Ko'r kam,Murabiylar,Xiva 5-tor,Zuyo ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha tanlovda yutib olgan narxni 2022 yil oylar davomida ishlarni bajarish

JADVALI

T/r	Nomi	Jami moliyalash- tirilgan mablag' (ishlarni bajarish)	2022 yil oylar qurilish qiymati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			Y a n v a r	f e v r a l	m a r t	a p r e l	m a r e Y	i y u r	I y u l	a v g u s t	s e n t y a b r	o k t y a b r	Noyabr	Dekabr
1	Qurilish montaj	276 500 000											276 500 000	

	ishlari												
	JAMI	276 500 000										276 500 000	

Buyrtmachi

Bog'ot tuman Obodenlashtirish
Boshqarmasi raxbari



O.Avezov

Pudratchi

XIVA XALOL SAVDO MCHJ
raxbari

D.Sadullayev



**Курниш-монтаж таваккалчиларни иктиёрий сугурталаш
ПОЛИСИ**

«KAFOLAT sug'urta kompaniyasi» AJ, 2022 йил 28 ноябрдаги №13-11/2022/26/19-сонли Қурилиш таваккалчиларини сугурталаш Шартномасининг шартларига мувофик, XIBA XALOL SAVDO MCHJ мулкий манфаатларини сугурта химоясини тақдим этади.

Умумий сугурта суммаси: 276500000 (икки юз етмиш олти миллион беш юз минг) сўм.

Шу жумладан:

а) мол-мulkни сугурталаш бўйича: () сўм

б) учинчи шахслар олдида фукаролик жавобгарлигини сугурталаш бўйича: ____ (____), хаёти ва соглигига зарар етказилиши учун битта шахс учун ____.

Сугурта мукофоти: 767485(етти юз олтмиш етти минг турт юз саксон беш)сўм сугурталаш шартномасининг шартларига мувофик.

Шартсиз франшизанинг миқдори: ҳар бир сугурта ходисаси бўйича сугурта суммасидан ____ % ни ташкил этади.

Сугурталовчининг мажбуриятлари 2022 йил 28 ноябрдан бошлаб кучга киради ва 2023 йил 27 ноябр соат 24-00 гача амал килади.

Сугурталовчининг номидан:



Берилган санаси: 2022 йил 28 ноябр



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Хоразм вилояти

Xorazm viloyati 220100, Urganch shahar, P.Maxmud ko'chasi,46 uy. Tel: +998904387766, E-mail: irada13@inbox.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Bekchanova Nellya Axatovna

Sana:06-10-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 64261

Obyekt nomi «Xorazm viloyati Bog'ot tumani Yangi qadam mahallasi Xiva 2-tor, Nurqadam, Ko'rakam, Murabbiylar, Xiva 5-tor va Ziyo ko'chalari yo'lini joriy ta'mirlash» (1,545km) loyihaning smeta qismi bo'yicha »

Buyurtmachi - Bog'ot tumani obodonlashtirish boshqarmasi.

Bosh loyihachi - «Xorazm yo'l ko'prik qurilish» MChJ

Litsenziya 30.09.2020yildagi AL-001388 sonli litsenziya

Moliyalashtirish manbai - byudjet

Bosh pudratchi - tanlov savdolari natijasida

Qurilish turi joriy ta'mirlash

Murojaat raqami: № 61224

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Loyiha topshirig'i, nuqsonlar dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Smeta xujjati, narxlari kelishuvi bayonnomasi, nuqsonlar dalolatnomasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Smeta xujjalariiga asosan quyidagi ishlar bajariladi: yo'l qoplamasini ta'mirlash.

Loyihani moliyaviy baholash.

Ob'ektning joriy narxlardagi narxi R.Uz qurilish sanoati (Toshkent-2021 yilning 3-choragi) foydalanadigan moddiy-texnik resurslarning joriy narxlari Katalogi, birja bahosi va bozor sharoitlari, baholar kelishish bayonnomasi yordamida resurs usuli bilan aniqlanadi.

Buyurtmachining 28.09.2022 yildagi 181-sloni xatiga ko'ra ob'ektning taxminiy narxini aniqlashda quyidagi narx parametrlari qabul qilingan:

- o'rtacha soatlik ish haqi miqdori - 16803,83 so'm kishi/soat (shu jumladan, ijtimoiy sug'urta bo'yicha chegirmalar - 12%);
- pudratchining boshqa xarajatlari - 15,51%;
- buyurtmachi boshqa xarajatlari - 9600,000ming.so'm;

- ob'ektni sug'urta qilish xarajatlari - 0,32%;
- tavakkalchilik koeffitsienti - 1,0.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Smeta xujjatlari buyurtmachi bilan kelishildi.

6. Ekspertiza natijalari.

1 Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar ekspertizadan o'tkazilmaydi.

2. Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

3. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

4. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019 yil 20 sentabrdagi 4464-sonli qaroriga muvofiq buyutmach boshqa harajatlari tarkibiga qurilish qiymatidan 0,05% to'lovi "Shaffof qurilish" MAT hisobiga o'tkazilishi va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydag'i "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3-bob 7 p. 9,10,11,12 va 9-bob 4 ustunlarga muvofiq ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflarni bartaraf etilishi va sifatini nazorat qilish (boshlang'ich hujjatlarni to'g'rilibini ta'minlashda) mas'uliyati Buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlar, smeta me'yorlariga muvofiqligi mas'uliyati Loyiha muallifiga yuklatilgan.

7. Xulosalar.

1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda «Xorazm viloyati Bog'ot tumani Yangi qadam mahallasi Xiva 2-tor, Nurqadam, Ko'rkan, Murabbiylar, Xiva 5-tor va Ziyo ko'chalari yo'llini joriy ta'mirlash» (1,545km) loyihaning smeta qismi ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflar inobatga olgan holda, buyurtmachi qabul qilgan ish hajmi va qiymatni belgilovchi parametrлarning chegaraviy harajatlarga

quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiqligini tasdiqlagan taqdirda ko'rib chiqqan holda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi:

Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'Ichov birligi	Miqdori	
		Taqdim etilgan	Tavsiya etilgan
Qurilishning QQSsiz joriy narhi	ming.so'm	240 606,659	240 606,659
Qurilishning QQS bilan joriy narhi (15%)	ming.so'm	276 697,658	276 697,658
Buyurtmachi boshqa harajatlari (fakt.)	ming.so'm	9 600,000	9 600,000
Qurilishning QQS va buyurtmachi harajatlari bilan joriy narhi	ming.so'm	286 297,658	286 297,658

2. Ko'rsatilgan narh shartnoma tuzish uchun asos emas.
3. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-soni, 31.01.2022 yildagi 46-soni qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.
4. Buyurtmachi ekspertizaning kamchiliklar va takliflari bo'yicha tuzatilgan loyiha-smeta hujjalarni bosh pudratchi tashkilotga o'tkazilishini ta'minlaydi.

Bosh mutaxassis: MATYAKUBOV SHIXNAZAR KURAMBAEVICH



«КЛАСДИКЛАЙМАН»
Хоразм вилояти Богот туман
Оболонпаштириш бошкармаси башлиғи

О.Авзевов

Богот туман Янгиқадам МФЙ Хива 5-тор ва Зиё күчалари ичкі хұжалик йўлларини жорий таъмирлаш - 0,63 км

НУҚСОНДАР ҚАЙДНЮМАСИ

2022 йил Сентябр ойидаги холаты

Кисм чегараси ПК+	Узунлиғи (М) 2	Йўл копламаси мавжуд холати 3	Йўл камчиликларини тузатишида килинадиган нишлар 4	Ўлчов бирлиги 5	Миндори 6
1-Участка (Хива 5-тор кўчаси)					
0+00 4+30	430	Мавжуд йўл тупрек кўтартмаси эни 6м, асфальтобетон копламаси эни 4,5 м, бузилиб, смирилиб йўқолган, лой котлаган, юзаси нотекис.	Йўл профилини материал кўшмай тиклаш. (430x4,7) ПК0+00-4+30 Тош-кум аралашмасидан Н=18 см калинликда қоплама куриш. (430x4,5) ПК0+00-4+30	M2	2021
2-Участка (Зиё кўчаси)					
0+00 2+00	200	Мавжуд йўл тупрек кўтартмаси эни 5м, юзаси нотекис.	Йўл пойи юзасини механизмлар ёрдамида текислаш. (200x5) Тош-кум аралашмасидан Н=18 см калинликда қоплама куриш. (200x4,5) ПК0+00-2+00	M2	1000

Материал ташини масофаси:

Тош-кум аралашмаси	к-р. Қазансай	км	94
--------------------	---------------	----	----

Ободонлаштириш бошкармаси, вакили:

“Лойиха ташкилоти вакили”

МФЙ раиси:

О.Бекетчукимбетов

ФИШ

Муратбеков А.

ФИШ

Абдуллаев А.

ФИШ